

# MUSTAQILLIK YILLARIDA FARG'ONA VILOYATIDA QISHLOQ VRACHLIK PUNKTLARINING BARPO ETILISHI

**Ruziyeva Odinaxon Sobirovna**

## *Annotatsiya:*

Mazkur maqolada Mustaqillik yillarida Farg'ona viloyatida bunyod etilgan Qishloq vrachlik punktlari va ularning faoliyati, hamda faoliyatidagi o'zgarishlar haqidagi ma'lumotlar taxlil etilgan.

**Kalit so'zlar:** Qishloq virachlik punktlari, sog'liqni saqlash, tez tibbiy yordam, reanimatsiya, jarrohlik, kol'poskopiya, gastroenterolog, endokrinolog, nevropatolog, stomatolog, UTT, pediatr, terapevt, ginekolog, xirurg.

## *Kirish*

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1996-yil 21-may "Qishloq ijtimoiy infrastrukturasi rivojlantirishning 1996-2000-yillarga mo'ljallangan Davlat dasturi to'g'risida"gi 182-son qarori, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining 1996-yil 30-may 464-son buyrug'iga asosan respublikada qishloq vrachlik punktlari joriy qilindi. Ushbu qarorlarga binoan QVP 1500 va undan ortiq aholi yashaydigan joylarda tashkil qilina boshlandi. Hozirgi kunda faoliyat ko'rsatayotgan QVP aholi soniga qarab 4 toifaga bo'linadi,

- aholisi 1500 - 2500 gacha I toifali;
- 2500 - 3000 gacha II toifali;
- 3000 - 5000 gacha III toifali;
- 5000 -7000 va undan ortiq IV toifali bo'lib undagi vrachlar hamda o'rta tibbiy xodimlar shunga muvofiq belgilanadi<sup>1</sup>.

Mamlakatimizda tashkil etilgan QVP biriktirilgan aholiga malakali tibbiy yordam ko'rsatish; aholi o'rtasida kasallanish, jarohatlanish, o'lim va nogironlikning oldini olish chora-tadbirlarini o'tkazish; aholini sanitariya-gigiyena ko'nikmalari bo'yicha bilim saviyasini oshirish, ratsional ovqatlanish, sog'lom turmush tarzi, jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanishni targ'ib qilish, zararli odatlarning oldini olish, ularga qarshi kurash tadbirlarini tashkil qilish; emlash ishlari, aholi yashaydigan joylar, tashkilot, muassasalar, korxonalarining tozaligi, ichimlik suvi ta'minotini nazorat qilish, ularda joriy sanitariya nazorati o'rnatish; o'sib kelayotgan avlodni sog'lomlashtirish, onalik va bolalikni muhofaza qilish, oilani rejalashtirish, bolalar orasida tug'ma nuqsonlar va nasl

---

<sup>1</sup> [https://uz.wikipedia.org/wiki/Qishloq\\_vrachlik\\_punkti](https://uz.wikipedia.org/wiki/Qishloq_vrachlik_punkti).

kasalliklarini kamaytirish; aholiga shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatish va ularni vaqti-vaqti bilan tibbiy ko'rikdan o'tkazish, dispanser nazoratiga olish; sil, teri-tanosil, saraton (rak), ruhiy, ichki sekretiya bezlari kasalliklari va boshqalarga qarshi kurashish bo'yicha davolash-profilaktika chora-tadbirlarini o'tkazish; aholi o'rtasida kasallanishni, ishchi va xizmatchilarning vaqtincha mehnatga layoqatsizlik sabablarini aniqlash va kamaytirish maqsadida xo'jaliklar, tashkilotlar, korxonalar rahbarlari bilan birgalikda tadbirlar ishlab chiqish va amalga oshirish; aholiga ko'rsatilayotgan tibbiy va profilaktik yordamning sifati va samaradorligini oshirish; kasalliklarni vaqtida aniklash, zaruriyat bo'lganda tegishli davolash-profilaktika muassasalariga yuborish, vrachlar maslahatini tashkil qilish; mehnatga vaqtincha layoqatsizlik ekspertizasini o'tkazish; xavfli yuqumli kasalliklar, zaharlanishlar kabi favqulodda hodisalar ro'y berganida yuqori (viloyat, tuman markaziy kasalxonalariga) davolash muassasalariga habar berish; aholi sog'lig'ini saqlashga qaratilgan barcha reja-tadbirlarni ishlab chiqish va o'tkazishda jamoa tashkilotlarini jalb etish kabi vazifalarni amalga oshiradi. Joriy etilgan QVP ga shifokor rahbarlik qiladi.

Tahlillar natijasi shuni ko'rsatdiki mamlakatimizda 1996-yil 307 ta QVP tashkil etilgan bo'lsa, ularda 237 nafar shifokor faoliyat olib borgan. 2004-yil QVP lar soni 2566 tani tashkil etgan, shifokorlar soni esa 6174 tadan iborat bo'lgan. Bugungi kunda QVPlarning hammasida maxsus tayyorgarlikdan o'tgan umumiy amaliyot shifokorlari hamda malakali o'rta tibbiyyot xodimlari ish olib boradi.

Respublikamizning mustaqillikka erishgandan keyingi yillarda Farg'ona viloyatida 4 ming o'ringa ega bo'lgan 10 dan ortiq shifoxona, 5 ming bemor qatnoviga mo'ljallangan 100 ta ambulatoriyalar yangidan faoliyat yurita boshladi.

Horijiy mamlakatlardan olib kelingan 50 dan ortiq UZI, 10 dan ortiq rentgen va 1 ta "LITO-TRIPTOR" tibbiy apparatlari klinik shifoxonalar va qishloq vrachliq punktlariga o'rnatildi<sup>2</sup>. 1992 - yilda 10 ta qishloq vrachlik ambulatoriyasi<sup>3</sup> faoliyat olib borgan.

1999-yilning 1-apreldan boshlab respublikaning qishloq joylarida aholi punktlarini aholi jon boshiga moliyalashtirishni joriy etish bo'yicha Farg'ona viloyatining uchta tumanida birinchi navbatda Beshariq, Quva va Yozyovon tumanlarida tajriba boshlandi. Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 5-martdagi 100-son qarori<sup>4</sup>, Sog'liqni saqlash vazirining 1999-yil 16-martdagi 169-sonli buyrug'i va boshqa bir qator hujjatlar darajasida qabul qilingan ushbu tajribaning huquqiy asosi bo'lib xizmat qildi. Ushbu hujjatlar aholi jon boshiga moliyalashtirishni joriy etish uchun zarur bo'lgan asosiy shart-sharoitlarni – joriy hisobraqam ochish huquqiga ega bo'lgan huquqiy jihatdan mustaqil birinchi tibbiy sanitariya yordami muassasalari maqomini berish va hududiy sog'liqni saqlash darajasidagi tajriba muassasalari uchun pul mablag'larini jamg'arishni ta'minlash masalalari belgilandi.

Farg'ona viloyatining uchta tumanida o'tkazilgan eksperiment davomida "Salomatlik" loyihasi va "Salomatlik plyus" tomonidan QVP muassasalarini boshqarish va moliyalashtirishning huquqiy va siyosiy asoslarini takomillashtirish, moliyalashtirishning yangi mexanizmlari va provayderlar uchun to'lov tizimini joriy etish hamda takomillashtirish bo'yicha salmoqli ishlar amalga oshirildi. Ushbu jarayonda Sog'liqni saqlash loyihasi va Zdrav Plus loyihasi (Zdrav Reform) doirasida amalga oshirilgan boshqaruv va moliyalashtirish islohotlari 2 bosqichga bo'lingan holda amalga oshirildi.

<sup>2</sup> Farg'ona shifokori. // 1999 yil, 14-iyun, №11

<sup>3</sup> Farg'ona shifokori. // 1992 yil, 29 –may, №10

<sup>4</sup> O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 05.03.1999 -yildagi 10-son qarori

Birinchi bosqichda islohotlar modeli ishlab chiqilib, Fargʻona viloyatining uchta tanlangan tumanida yaʼni Beshariq, Quva, Yozyovon tajriba tariqasida sinovdan oʻtkazildi. Tajriba yakunida, natijalar ijobiy baholangach, ikkinchi bosqichda ushbu model Fargʻona viloyatining qolgan tumanlari, shuningdek, Navoiy va Sirdaryo viloyatlarida ham joriy etildi.

Fargʻona viloyatining uchta tumanida birinchi bosqichda amalga oshirilgan ishlarni shartli ravishda ikki katta bosqichga boʻlish mumkin. Birinchi bosqich 1997-yil dekabr oyida boshlanib, 1999-yil martigacha, yaʼni 1999-yil 5-martdagi Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Fargʻona viloyatida birlamchi tibbiy-sanitariya yordamini isloh qilish loyihasini amalga oshirish toʻgʻrisida”gi 100-son qarori chiqarilgunga qadar davom etdi<sup>5</sup>. Ikkinchi bosqich yuqorida qayd etilgan farmon chiqarilgandan soʻng boshlanib, 2004-yil oxirigacha davom etganini koʻramiz.

Fargʻona viloyatida oʻtkazilgan ushbu loyiha doirasida, viloyatining olti tumanida (3 ta tajriba, 3 ta nazorat okrugi) qishloq birinchi tibbiy sanitariya yordami muassasalarida koʻrsatilayotgan tibbiy yordamning haqiqiy hajmi va uni koʻrsatish harajatlarini aniqlash maqsadida oʻrganish ishlari amalga oshirildi. Shuningdek Fargʻona viloyatining 16 ta tumanidagi QVP muassasalari boʻyicha birlamchi tibbiy yordam koʻrsatish boʻyicha haqiqiy harajatlar ulushini aniqlash va aholi jon boshiga standartlarni hisoblash uchun maʼlumotlar toʻplanib, ushbu standartlar hisoblab chiqildi va natijalari Fargʻona viloyati mutaxassislari bilan muhokama qilib borildi<sup>6</sup>.

Bu ishlar oʻrganish natijalariga koʻra 1998-yilda ham, 1999-yilda ham amalga oshirilganligini koʻramiz. Fargʻona viloyatining 6 ta tumanida qishloq aholisiga tibbiy xizmat koʻrsatish holati toʻgʻrisida batafsil maʼlumot olish fokus-guruhlar usulida sotsiologik soʻrov oʻtkazildi.

1999-yil mart oyida Vazirlar Mahkamasining 100-son qarori, shuningdek, Sogʻliqni saqlash vazirligining 169-son buyrugʻi va bir qator meʼyoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilingandan soʻng boshlandi. Ular Fargʻona viloyati hokimligi va viloyat sogʻliqni saqlash boshqarmasi tomonidan olib borilgan islohotlar va tajribani amalga oshirishning huquqiy asosi boʻlgan<sup>7</sup>.

Fargʻona viloyatida 352 dan ortiq ambulatoriya-poliklinikalarining joylarda 282 dan ortiq xonadon-shifoxonalari tashkil etildi, bu muassasalarda 24 ta jarrohlik va 302 ta kunduzgi kompleks davolash muassasalari<sup>8</sup> bemorlarga arzon tibbiy xizmat koʻrsatdi. Tugʻish yoshidagi onalarga yangicha tarizdagi tibbiy xizmat koʻrsatila boshladi. 1999-yillarga 3 ming 200 oʻrin-joyga ega boʻlgan va yangidan tashkil etilgan tugʻruq komplekslari xizmat koʻrsatishi yoʻlga qoʻyildi. 1999-yilda Beshariq tumanidagi Andarxon qishlogʻida yangi davolash punkti qurilib, ishga tushirildi<sup>9</sup>. Tumanda yana bitta feldsherli-akusherlik punkti oʻz faoliyatini boshladi.

2006-yilda Oʻzbekiston Respublikasi sogʻliqni saqlash tizimida QVP lar soni jami 214 taga yetgan. Fargʻona viloyatida ularning 74 tasi faoliyat olib borgan, jumladan ularning turi boʻyicha I-4, II-21, III-49 tani tashkil etgan.

Viloyat aholisining 70 foizi qishloqlarda yashaydi., aholining 50 foizi 14 yoshgacha boʻlgan bollardan iborat. Qishloq aholisini sogʻligʻini nazorat qilish, malakali tibbiy xizmat koʻrsatish

---

<sup>5</sup> Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori. “Fargʻona viloyatida birlamchi tibbiy-sanitariya yordamini isloh qilish loyihasini amalga oshirish toʻgʻrisida” 05.03.1999 y. №100

<sup>6</sup> Fargʻona shifokori. // 2003-yil, 14-iyul, №11.

<sup>7</sup> Fargʻona viloyati qishloq joylarida birlamchi tibbiy-sanitariya yordamini isloh qilish: moliyalashtirish va boshqarish tizimi. USAID/ZdravReform dasturi Oʻzbekistonda. – Toshkent: 2000.

<sup>8</sup> Fargʻona shifokori. // 1999 yil, 14-iyun, №11.

<sup>9</sup> Fargʻona shifokori. // 1999 yil, 29- iyuun, №8.

ma'suliyati yuklatilgan qishloq vrachlik ambulatoriyalari, uchastka shifoxonalari, feldsher-akusherlik punktlarining asosiy ko'pchiligi moslashtirilgan binolarda joylashtirilganligi, zamonaviy tashxis qo'yish, muolajalash, asbob-anjomlari bilan jihozlash, fizioterapevtik xizmatlar ko'rsatish, tibbiy tahlil o'tkazish va tashhis qo'yish imkoni yo'qligi, feldsher-akusherlik punktlarida asosan o'rta tibbiy xodimlari xizmat qilishi sababli bemorlar tuman va viloyat markazlariga qatnashga, yotib davolanishga majbur bo'lishgan. Bu hol ayniqsa Beshariq, Yozyovon, O'zbekiston tumanlari aholisi o'rtasida kuzatlgan, aholi bu sharoitda davolanib kelishlari uchun yo'lga ketadigan harajatlarda qiyin ahvolga tushar edi.

Keyingi yillarda viloyat markazlarida 100 o'rinli zamonaviy xorijiy tibbiy asbob-anjomlari bilan jihozlangan kardiologiya markazi, 100 bemorga xizmat qiladigan urologiya markazi, 1 milliard 200 million so'mdan ortiq mablag' sarflanib, qayta qurish yo'li bilan 360 o'ringa ega bo'lgan respublika shoshilinch tibbiy-ilmiy markazining viloyat filiali hamda shahar va tumanlardagi 18 ta bo'limlari qatorida Dang'ara tuman markaziy shifoxonasida 60 o'rinli bolalar bo'limi, Qo'qon shahrida bolalar jarrohlik markazi, Yozyovon va Farg'ona tumanlarida yuqimli kasalliklar shifoxonalari foydalanishga topshirildi<sup>10</sup>. Shuningdek viloyat tug'uriqxonasi bazasida "Ona-bola Serining markazi" tashkil qilindi. Bunga ko'ra chaqqaloqlarni tug'ilgandan keyin emas, ya'ni avvalroq homiladorlik davrida tashxis qo'yish, davolash, ona-bolani sog'lomlashtirish chora-tadbirlari shu markazda ko'rilishi yo'lga qo'yildi.

Farg'ona viloyatining ayrim tumanlarida moliyalashtirish va boshqaruv tizimini isloh qilish natijalarini quyidagi jadval orqali tahlil etishimiz mumkin.

<b>Ko'rsatkichlar</b>	<b>1999</b>	<b>2004</b>
Farg'ona viloyatida moliyalashtirish va boshqaruv tizimini isloh qilishda ishtirok etayotgan qishloq aholi punktlari soni	45	273
Pilot tumanlar soni	3	17
Moliyalashtirish va boshqarish tizimi islohotlari bilan qamrab olingan aholining viloyat umumiy aholisining ulushi (foizda)	12	66
Tajribali Birlamchi tibbiy yordam muassasalarini aholi jon boshiga moliyalashtirish standarti (so'mda)	367	1831
Pilot tumanlar sog'liqni saqlash tizimini amalda moliyalashtirishning umumiy hajmida tajriba muassasalarini amalda moliyalashtirish ulushi	19	19.3

Xulosa sifatida shuni aytish kerakki mustaqillik yillarida viloyatning shahar va tumanlarida oilaviy poliklinikalar hamda qishloq vrachlik punktlari binolarini qayta ta'mirlash ishlari nihoyasiga yetkazildi. Tizimdagi keng ko'lamlislohotlar barobarida mavjud qishloq vrachlik punktlari o'rnida qishloq oilaviy poliklinikasi va qishloq vrachlik punktlari tashkil etildi. Aholiga qulaylik yaratish maqsadida ularning xizmat ko'rsatish vaqti belgilandi. Qishloq oilaviy poliklinikalarida umumiy amaliyot shifokorlari bilan birga oltita tor soha mutaxassislari, jumladan, pediater, terapevt, ginekolog, xirurg, stomatolog, UTT vrachi faoliyati yo'lga qo'yildi. Shu bilan birga birlamchi

<sup>10</sup> Farg'ona shifokori. // 2002-yil, 30-yanva, №2.

tibbiy-sanitariya yordami muassasalari binolarini ham qayta ta'mirlash va imkoniyatlarini kengaytirish ishlari olib borildi.

Shu bilan birga tez tibbiy yordam shoxobchasi poliklinikaga ko'chirilganligi tibbiy xizmatni uzluksiz, tunu kun davom ettirish imkonini yaratdi. 5 ta tez tibbiy yordam brigadasi aholiga xizmat qilib keldi. Tibbiy patronaj xizmati uchun "Matiz" avtomashinasi ajratilganligi esa uyida yotib qolgan bemorlar holidan xabar olish va mazkur xizmat ishini yanada yaxshilashda ahamiyat kasb etdi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 05.03.1999 -yildagi 10-son qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori. "Farg'ona viloyatida birlamchi tibbiy-sanitariya yordamini isloh qilish loyihasini amalga oshirish to'g'risida" 05.03.1999 y. №100
3. Farg'ona viloyati qishloq joylarida birlamchi tibbiy-sanitariya yordamini isloh qilish: moliyalashtirish va boshqarish tizimi. USAID/ZdravReform dasturi O'zbekistonda. – Toshkent: 2000.
4. Farg'ona shifokori. // 1999 yil, 14-iyun, №11
5. 5.Farg'ona shifokori. // 1992 yil, 29 –may, №10
6. Farg'ona shifokori. // 2003-yil, 14-iyul, №11.
7. Farg'ona shifokori. // 1999 yil, 14-iyun, №11.
8. 8.Farg'ona shifokori. // 1999 yil, 29- iyuun, №8.
9. Farg'ona shifokori. // 2002-yil, 30-yanva, №2.
10. [https://uz.wikipedia.org/wiki/Qishloq\\_vrachlik\\_punkti](https://uz.wikipedia.org/wiki/Qishloq_vrachlik_punkti).